



## XALQ DEPUTATLARI QARSHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 12-may

VII-8-58-4-59-K/25

Qarshi tumani

### **Tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 295-sonli qaroriga asosan hamda Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 5-martdagi 05-19-3446-sonli va 2025-yil 26-martdagi 05-19-4741-sonli yig'ilish bayonlari va ekspert xulosalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 5-martdagi 05-19-3446-sonli va 2025-yil 26-martdagi 05-19-4741-sonli yig'ilish bayonlari va ekspert xulosalari hamda tuman hokimining ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi G'.Ergashevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qarshi tumanidagi mavjud jami 15 (o'n besh) ta geografik obyektlarni (qabriston va ziyorotgohlarni) nomlash bo'yicha takliflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi G'.Ergashev tegishli tashkilotlar bilan bargalikda mazkur geografik obyektlarni Davlat reyestriga kiritish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Qarshi tuman Kengashining 2025-yil 16-apreldagi VII-8-40-4-59-K/25-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi G'.Ergashev hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Safarova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIKULOV ZOIR  
XALILOVICH

Xalq deputatlari Qarshi tumani  
Kengashining  
2025-yil 12-maydagi  
VII-8-58-4-59-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Qarshi tumanidagi Reeystrga kiritilishi lozim bo‘lgan qabristonlar va  
ziyoratgohlar  
RO‘YXATI**

T/R	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Nomlanishi
1	2	3	4	5	6
1	Qabriston	Kat MFY	Xo‘jaguldur ota	Xo‘jaguldur ota	“Xo‘jaguldurota” nomi muvofiq
2	Qabriston	Patron MFY	Tashqi mozor	Tashqi mozor	“Tashqimozor” nomi muvofiq.
3	Qabriston	Kaxlak MFY	Choydori	Choydori	“Choydori” nomi muvofiq
4	Qabriston	Kaxlak MFY	Bog‘ot	Bog‘ot	“Bog‘ot” nomi muvofiq
5	Qabriston	Qoraqutchi MFY	Bog‘iobod	Bog‘iobod	“Bog‘iobod” nomi muvofiq
6	Qabriston	Saroy MFY	Saroy	Saroy	“Saroy” nomi muvofiq
7	Qabriston	Uzumzor MFY	Salmoni pok	Uzumzor Salmoni pok	“Yuqori Salmoni Pok” nomi muvofiq
8	Qabriston	Shodlik MFY	Xo‘jaguliston	Shodlik Xo‘jaguliston	“Yuqori Xo‘jaguliston” nomi muvofiq
9	Qabriston	Poshton MFY	Balxi	Balxi	“Balxiyon” nomi muvofiq
10	Qabriston	Poshton MFY	Jumabozor	Jumabozor	“Jumabozor” nomi muvofiq
11	Qabriston	Yangi hayot MFY	Shirkent	Shirkent	“Shirkent” nomi muvofiq
12	Ziyoratgoh	Patron MFY	Nomsiz	Yetti tug‘ ota	<b>Yetti tug‘ ota</b>
13	Ziyoratgoh	Navbahor MFY	Nomsiz	Hazrati Sulton	<b>Hazrati Sulton</b>
14	Ziyoratgoh	Istiqlol MFY	Nomsiz	Abu Bakr Shayx Shibliy	<b>Abu Bakr Shayx Shibliy</b>
15	Ziyoratgoh	Qovchin MFY	Nomsiz	Abu Muin Nasafiy	<b>Abul Mu‘in an-Nasafiy</b>